



**TIBBIYOTDA EMPATIYA VA FALSAFIY QARASHLAR. FALSAFIY
TERAPIYA. BO'LAJAK SHIFOKORLARGA FALSAFA FANINI
O'QITISHNING KLINIK AHAMIYATI**

Shakarov Bobur Xusniddinovich

Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Rayimqulova Zebiniso Ilhomjon qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Tibbiyot va falsafa inson hayoti, axloqiy tanlovlardan hamda bilish jarayonining tub mohiyatini anglashda o'zaro uyg'unlashgan fanlardir. Ushbu maqolada tibbiyot amaliyotidagi empatiya tushunchasi falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinib, uning inson ontologiyasi, axloqiy mas'uliyat va bilim bilan aloqadorligi yoritiladi. Empatiya – bu faqat bemor bilan samimiyligi muloqot qilish vositali emas, balki insoniylik va axloqiy ongning shakllanishi, tushunish va tushunilish jarayonining asosi sisatida ko'rildi.

Shuningdek, maqolada empatiyaning falsafiy tafakkur bilan bog'liq ravishda qanday shakllanishi va u axloqiy qaror qabul qilish jarayonida qanday rol o'ynashi muhokama qilinadi. Shu jumladan falsafiy terapiya va uning ahamiyati hamda bo'lg'usi shifokorlarga falsafa fanini o'qitishning klinik ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: empatiya, axloqiy falsafa, deontologik etika, axloqiy majburiyat, utilitarizm, falsafiy terapiya.

Empatiya tushunchasi psixologiya va tibbiyot yo'nalishlarida keng o'rganilgan bo'lsa-da, ayniqsa shifokorlar uchun bu tuyg'uni shakllantirish va rivojlantirishga oid jihatlar hali ham ilmiy izlanishlar mavzusi bo'lib qolmoqda. Ushbu maqola shifokorlar orasida empatiya tuyg'usining psixologik asoslarini o'rganish, mavjud yondashuvlarni tahlil qilish va adabiyotlar asosida tahliliy yondashuv taklif qilishni maqsad qiladi.

Empatiya — bu boshqa odamning hissiyotlarini anglash va unga chin dildan hamdardlik bildirish qobiliyati bo'lib, insonlararo munosabatlarning ajralmas qismidir.



Ayniqsa, shifokorlar uchun bu ko‘nikma juda muhim, chunki empatiya bemor bilan ishonchli aloqa o‘rnatish, aniq tashxis qo‘yish va davolash jarayonining samaradorligini oshirishga katta ta’sir qiladi.[1]

Empatiyaning turlari:

Hissiy empatiya — bu boshqalarning harakat va hissiy javoblariga taqlid qilish yoki ularni ichki his qilish orqali yuzaga keladigan jarayondir.

Kognitiv empatiya - ko‘proq aqliy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib, taqqoslash, o‘xshatish (analogiya) kabi fikrlash mexanizmlariga asoslanadi.

Prediktiv empatiya – shaxsning boshqalarning ma’lum holatlardagi hissiy javoblarini oldindan sezish va taxmin qilish qobiliyatini anglatadi.

Empatiyaning alohida ko‘rinishlari sifatida empatiya va simpatiya ajratib ko‘rsatiladi.

Empatiya — bu kishi o‘zini boshqaning o‘rniga qo‘ygan holda uning his tuyg‘ularini xuddi o‘zidek his qilish holati.

Simpatiya – ijtimoiy jihatdan ifodalangan hamdardlik bo‘lib, u boshqaning kechinmalariga nisbatan rasmiy, tashqi ifoda orqali bildiriladi.

Shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqotda empatiyaning mavjudligi, eng avvalo, shifokorning bemor so‘zları, hissiyotlari hamda tana tilini to‘g‘ri anglay olishida namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, bu anglash jarayoni shunday tarzda aks etadiki, bemor o‘z kechinmalaridan shifokor xabardor ekanligini his qiladi. Bunda e’tibor, asosan, empatiyaning tashqi, ya’ni kuzatiladigan jihatlariga qaratiladi. Ya’ni, shifokorning empatik qobiliyati bemorning ichki dunyosi — fikrlari va his-tuyg‘ulari haqida muhim ma’lumotlarni olishga xizmat qiladi. Bu jarayonda empatik tinglashning asosiy vazifasi — bemorga samimiyl e’tibor qaratilayotganini his ettirish va uni o‘z hissiyotlarini ochiqroq ifodalashga undashdir. Bu esa, o‘z navbatida, shifokorga bemorning holatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.[2]

Falsafa anatomiysi — bu har bir tarixiy falsafiy yo‘nalishda shakllangan tushuncha va g‘oyalarni tizimli hamda strukturaviy jihatdan chuqr tahlil qilish bilan shug‘ullanadi.



Falsafa patofiziologiyasi — turli ijtimoiy omillar va shart-sharoitlar ta'sirida yuzaga keluvchi bilishdagi yoki aqliy faoliyatdagi g'ayritabiyliliklar, intellektual chetlanishlar va falsafiy tafakkurdagi anomaliyalarni o'rganadi

Falsafaning normal fiziologiyasi — muayyan madaniy va tarixiy sharoitlarda mafkuraviy tizimlarning qanday ishlashi va qanday mexanizmlar asosida tartibga solinishini o'rganuvchi fan sohasi hisoblanadi. Bu jarayonlar normal psixik faoliyat doirasida yuz beradi.

Falsafiy terapiya — ongda yoki tafakkur jarayonida yuzaga kelgan buzilishlar, patologik holatlar bilan ishlashga qaratilgan amaliy faoliyat bo'lib, u fikrlashdagi muvozanatni tiklash, ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash va aqliy holatni normallashtirishga xizmat qiladi.

Falsafa gigiyenasi — fikrlovchi shaxs hayoti va mehnat sharoitlarining uning tafakkuriga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Shu bilan birga, bu soha mafkuraviy og'ishlarning oldini olish hamda sog'lom ma'naviy muhitni ta'minlash uchun qulay intellektual sharoitlarni aniqlaydi.[3]

Falsafaning tibbiyotdagi ahamiyati

1. Gnoseologik yondashuv

Falsafa tibbiy bilimlarning mohiyatini, ularning kelib chiqishi va ishonchlilagini tushunishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, gnoseologiya — bilim nazariyasi — shifokorlarga turli dalillarni tahlil qilish, ularning ishonchliligi va amaliy qiymatini baholashda yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, bemor parvarishida puxta va asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

2. Muloqot va fikrni ifodalash madaniyati

Falsafa mutaxassislarga o'z fikrlarini aniq va tushunarli tarzda ifoda etishni o'rgatadi. Murakkab tibbiy tushunchalarni oddiy, lekin mazmunli til orqali tushuntirish, bemor bilan samarali muloqot qilish imkonini yaratadi. Bu bemorning holatini chuqurroq tushunish va uni davolash jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi.



3. Tarixiy-falsafiy kontekst

Tibbiyot falsafiy tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilinsa, uning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy-ma'naviy vazifalari va rivojlanish bosqichlari chuqurroq anglash mumkin bo'ladi. Bu esa sog'liqni saqlashdagi mavjud axloqiy, huquqiy va ijtimoiy muammolarga yangicha yondashuv ishlab chiqishga zamin yaratadi.[4]

Tibbiyot sohasi nafaqat ilmiy bilim va amaliy ko'nikmalarni, balki axloqiy, ijtimoiy va falsafiy qarashlarni ham chuqur anglashni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak shifokorlarga falsafa fanini o'qitish ularning kasbiy shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Falsafa fani, eng avvalo, tibbiy bilimlarning mohiyatini tahlil qilish, dalillarni tanqidiy baholash va muammolarga tizimli yondashishni o'rgatadi. Bu esa shifokorning intellektual salohiyati va kasbiy mas'uliyatini yanada mustahkamlaydi.

Xulosa

Tibbiyot va empatiya falsafiy nuqtayi nazardan inson qadr-qimmati, axloq va bilim o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni aks ettiradi. Kant etikasi bo'yicha, har bir inson o'z-o'ziga maqsad bo'lib, hech qachon vosita sifatida qaralmasligi kerak. Bu tamoyil tibbiyotda shifokor bemorga nafaqat jismoniy jihatdan, balki hissiy va axloqiy jihatdan ham hurmat bilan munosabatda bo'lishi kerakligini anglatadi.

Shu sababli, tibbiyotda empatiya va falsafa bir-birini to'ldiruvchi tamoyillar bo'lib, shifokorlarning qarorlarini nafaqat ilmiy asosda, balki axloqiy va insonparvarlik nuqtayi nazaridan ham o'ylab qabul qilish zarur. Tibbiyot nafaqat hayotni saqlab qolish, balki inson qadr-qimmatini himoya qilish vazifasini ham bajarishi lozim.

Falsafiy terapiya tibbiyotda insonning ruhiy va axloqiy holatini yaxshilashga yordam beruvchi muhim yondashuvlardan biridir. U bemorlar bilan muloqotda empatiya va chuqur fikrlashni rivojlantiradi, shuningdek, kasallik va hayotning ma'nosiga oid murakkab savollarga yechim topishda qo'l keladi.

Bundan tashqari, bo'lajak shifokorlarga falsafa fanini o'qitish ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradi, axloqiy qaror qabul qilishda mustahkam asos yaratadi va bemorlarga yanada chuqurroq yondashishga imkon beradi. Shu sababli, tibbiy ta'lim tizimida falsafaga e'tibor qaratish shifokorlarning professional va insoniy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. SHIFOKORLARDA EMPATIYA HISSINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI | Journal of science-innovative research in Uzbekistan

<https://inlibrary.uz/index.php/journal-science-innovative/article/view/60861>

2. Samandar Xodjaev/Empatiya - Vikipediya

https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Foydalanuvchi:Samandar_Xodjaev/Empatiya

3. Yuldasheva L.S. TDSI Ijtimoiy fanlar kafedrasи dotsenti, Tursunbayev Farrux Aziz o'g'li TDSI 2-kurs talabasi. Iyun 2023

https://www.oriens.uz/media/journalarticles/101_Yuldasheva_L.S._686-692.pdf

4. Turg'unov Jahongir Mamurovich. Oktyabr 2024

<https://pedagoglar.org/01/article/download/5589/5055/9954>